

ETNOLINGVISTIK ASPEKTDA HAYVON HARAKATINI IFODALOVCHI SO‘ZLAR TADQIQI

Turg‘unova Dildora Rahmatjonovna
ADU lingvistika yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Olamning lisoniy manzrasida hayvonlar harakatini ifodalovchi leksik birliklar boshqa til birliklari singari muhim ahamiyatga ega. Maqolada o‘zbek tilida hayvon harakatlarini ifodalovchi leksemalarning qo‘llanilish tarixi, qo‘llanilish doirasi, hamda ular ishtirok etgan og‘zaki va yozma nutqqa oid matnlarning yaratilishi, qabul qilinishining psixolingvistik jihatlari, tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: leksik maydon, leksik-semantik guruh, leksik lakuna, pragmatika, konnatativ sema.

Аннотация. В языковом ландшафте Вселенной лексические единицы, представляющие движение животных, так же важны, как и другие языковые единицы. В статье исследуются история использования, сфера применения, а также психолингвистические аспекты создания и восприятия текстов, относящихся к устной и письменной речи, в которых они участвуют, лексем, представляющих движения животных на узбекском языке.

Ключевые слова: лексическое поле, лексико-семантическая группа, лексическая лакуна, прагматика, коннатативная Сема.

Annotation. In the linguistic address of the universe, lexical units representing animal movement are as important as other language units. The article explores the history of the use of lexemes representing animal movements in Uzbek, the scope of their application, as well as the psycholinguistic aspects of the creation, adoption of texts related to oral and written speech in which they participated.

Keywords: lexical field, lexical-semantic group, lexical lagoon, pragmatics, connatative sema.

Ot zoologik termini ilk bor “Kultegin” bitiktoshida o‘z ifodasini topgan. Navoiy va “Devon” da aynan qo‘llanadi¹. U fauna bilan bog‘liq leksik birliklar – “yirik ishulov hayvoni” semasini ifodalaydi (O‘TIL, I, 258). Qadimgi turkiy tilda ät tarzida talaffuz qilingan. Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan ot so‘ziga “qattiq talaffuz

¹ Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи.- Тошкент: Фан, 2008. -Б 83

qilinadigan alif bilan” deya bat afsil izoh beriladi (DLT, I, 70). Otlar bilan insonlar o‘rtasida do‘stlik aloqalari miloddan avvalgi 3600 yillik tarixga ega¹. Xitoy tarixiy adabiyotlаридаги ма’лумотлarda turkiylarning bayir, kurikan, tonra, boku (bokut) qabilalarida yetishtirilgan ot zotlari haqida qimmatli ma’lumotlar uchraydi va ularning ayrim sifatlari bayon qilingan.²

Yurish harakati lingvistik tushuncha bo‘lib, u subyektning muayyan makonda oyoqlari yoki transport vositasi yordamida amalga oshiriladigan harakatini ifodalash uchun qo‘llanadi. Yurish harakat fe’llari ham fe’l leksemasi tizimida o‘ziga xos semantik maydonni tashkil etib, barcha yurish- harakati fellari mazkur leksik-semantik maydon doirasida birlashdi³.

Quyida ot hayvonining ovoz harakatini ifodalovchi so‘zlar leksik-semantik guruhlari haqida to‘xtalamiz.

Otning ovoz harakatini ifodalovchi so‘zlar guruhini **kishnamoq, arillamoq, arqiramoq, oqramoq, o‘kranmoq, pirqillamoq, pirqiramoq, pishqirmoq, tigrätti kabi leksemalar tashkil qiladi.**

O‘zbek tilida otning ovoziga nisbatan **kishnamoq** (<https://savodxon.uz>) so‘zi faol qo‘llanadi. O‘zbek tili lisoniy manzarasida leksik ma’nosi jihatidan tabiiy kishnov tovush chiqarishini ifodalab faqat ot hayvoniga, ovoziga nisbatan qo‘llanadi: Tarlon jilovini silkib-silkib **kishnadi**, yulqib-yulqib kishnadi. Keyin men sari yuzlandi. Oyoqlarini katta-katta yoydi. Bo‘ynini cho‘zdi. Quloqlarini chimirdi. (Tog‘ay Murod). Ot hayvoni asosan boshqa begona ot ni ko‘rganda kishnaydi: Odam so‘zlashib topishadi, yilqi **kishnashib** topishadi, Ziyodulla chavondoz! Shunday-shunday topishadi-da! (T.Murod, “Ot kishnagan oqshom”). Shuningdek, yilqichilik bilan shug‘ullanuvchi chorvadorlar otning kishnov tovush chiqarishini hayvonning biror xavfdan ogoh qilayotganini bildiradi, va o‘zini xavf-xatardan himoya qilishning o‘ziga xos uslubi deydilar: Tishlarini irjaytirib **kishnadi**. To‘riqni ogoh qildi. Yaqinlashma, degan bo‘ldi. Bu so‘z juda uzoq tarixga ega bo‘lib, qadimgi turkiy tilda ham **kishnädi**, kishnär, kishnämäk (DLT, III, 317.) so‘zi hayvonning ovoziga nisbatan qo‘llangan. Biroq, qadimgi turkiy tilda kishnamoq so‘zi faqat xachirning ovoziga nisbatan qo‘llangan: qatür kishnädi. Xachir xangradi (DLT, III, 317.) Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan kishnamoq so‘zining otning ovoziga nisbatan qo‘llangan shakli uchramaydi. Otning kishnov tovush chiqarishi qadimgi turkiy tilda **oqradi, oqrar, oqramaq** (DLT, I, 272) leksemalari orqali ifodalangan bo‘lib, otga nisbatan kishnadi

¹ Ot xususiyatlari, anatomiysi va fiziologiyasi. <http://uz.warbletoncouncil.org>.

² Komron Muhammad o‘g‘li Zayniyev. Tarixiy adabiyotlarda turkiy ot zotlari tavsifi. <https://cyuberleninnka.ru>.

³ Dilnoza Shuxratovna Rahimova. <https://cyberleninka.ru/article/n/yurish-harakat-fe-llarining-valentlik-tarkibi>

dagan ma'noni bildiradi: Ot oqradi – ot ovqat yeyish vaqtida kishnadi. Bu so‘zning qadimgi turkiy tilda ko‘plik shakli –**sh** affiksi bilan hosil qilingan: oqrashur, oqrashmaq (DLT, I, 238). Jund qamug‘ **oqrashdi** – [o‘tni] ko‘rib ot podasi kishnashdi. Otning kishnov ovoz chiqarishi, kishnamoq ma’nosni Alisher Navoy asarlari tilida quyidagi leksemalar vositasida ifodalanadi: “Muhokamat-ul lug‘atayn” da oxranmäk leksemasi bilan ifodalanadi. Asarning Anqara nashrida ohrenmek shaklida qayd etilgan¹. Har ikki so‘z ham ot hayvonong ovoz chiqarishi bilan bog‘liq semani ifodalarydi. Turkiy tillar ichida azarbajyon tilida oxranmaq so‘zi ham ot hayvoning kishnov tovush chiqarishini semasini ifodalarydi.² O‘zbek tili xalq og‘zaki ijodi sanalmish xalq dostonlarimizda ot hayvoning o‘ziga xos obrazlari tasvirlanganki, ular xalqimizning bu hayvon bilan o‘rnatilgan kuchli do‘stlik aloqalari, ijobiy munosabatlarini aks ettiradi: **Kishnay-kishnay** ovozi bitibdi, qorajon hamon shunday yotibdi (Alpomish). Xalq dostonlarida ot hayvoning kishnashi **arqiramoq** so‘zi bilan ham qayd etiladi. Asarning badiiy ta’sirchanligini oshirish, otning chopish manzarasini tasvirlash, bu jarayonni bo‘rttirish, maqsadida arqiramoq so‘zi qo‘llanib, otning **na’ra tortishini** ifodalarydi:

Boychibor boradi shunday **arqirab**,

Tuyog‘ida to‘rt sixi bor yarqirab,

Irg‘iganda qumlar ketti tirqirab,

Borayotir cho‘lda shunday sharqirab. (“Alpomish”, 237)

O‘zbek tilida kishnamoq so‘zi uslubiy maqsadda insonga nisbatan qo‘llanib, ijobiy munosabatni, o‘ta “g‘ayratli”, “kuch-quvvatga to‘la” ma’nolarini ifodalarydi: ingramaydi kishnaydi, tilanchimas ishlaydi (She’rdan). Bunday o‘rinlarda kishnamoq leksemasining hayvon ovoziga aloqadorlik semasi yo‘qolib, “tezlik”, “chopqirlik” semalarini ifodalab, shaxsnинг xususiyatlarini ko‘rsatadi. Narsa-buyumga, texnikaga nisbatan qo‘llanganda esa “yaxshi yurmoq”, “ovozi chiqarmoq” semalarini ifodalarydi:

Tishlaganda **kishnaydi**.

Kishnab-kishnab ishlaydi.

Ishlab ko‘ngil xushlaydi. (“Topishmoqlar”, Tikuv mashinasi).

Pishqirmoq leksemasi o‘zbek tilining izohli lug‘atida ot,qoramolning burundan kuchli bo‘g‘iq ovush chiqarishini ifodalarydi: Kanadan ham ko‘ra sigir uning achig‘ini keltirdi: kanani teray desa, qo‘ymaydi: boshini silkiydi, pishqiradi. (A.Qahhor, “Adabiyot muallimi”); Tayoq jonidan o‘tgan sho‘rlik jonivor **pishqira-pishqira** noiloj oldinga yurdi. (N.Norqobilov, “Oqbo‘yin”). Qadimgi Turkiy tilda bu so‘z **tigrätti**,

¹ Egamova Sh Әгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи.- Тошкент: Фан, 2008.

² <https://sozluk.obastan.com>

tigrätür, tigrätmäk (DLT, II. 382) tarzida iste'molda bo'lgan. Mahmud Qoshg'ariy tomonidan pishqirmoq, kishnamoq ma'nosini ifodalovchi quyidagi misol berilgan: Ol atin tigratti – U otini pishqirtirib, kishnatib yuradigan qildi. (DLT, II. 382). Bu so'z folklor asarlari tilining izohli lug'atiga kiritilmagan. Lekin, bir necha xalq dostonlarida otning harakatini ifodalovchi so'z sifatida qo'llanadi: Go'ro'g'libek so'zini tamom qilgandan keyin, G'irko'k bir **pishqirib**, halqumini g'arillatib qo'ydi ("O'zbek xalq dostonlari" library.samdukf.uz)

Pishqirmoq leksemasi o'zbek tilida semantik tarkibida konteks talabi bilan poyezdga nisbatan qo'llanib, otning burnidan chiqayotgan tovushga o'xshash "tovush chiqarmoq" semasini ifodalaydi: Pishqirib turgan poyezdning 10-vagoniga chiqib, joylashdik; Katta eshalon Mag'rib sari pishqirib borar, minglab og'lolarning yuraklari poyezd g'ildiraklarining taqir-tuquriga monand g'azabnok urardi ("Olis-olislarda qolgan Qo'shrabot" hikoya). Uslubiy madsadda pishqirmoq leksemasi ko'chma ma'noda olovga nisbatan "baland yonmoq" va "ovoz chiqarib yonmoq" ma'nosiga ega: o'choqdagi olov pishqirar edi (So'zlashuvdan). Og'zaki va yozma nutqqa oid matnlarda pishqirmoq so'zi ma'noni kuchaytirish maqsadida takroriy shaklda qo'llanadi: Tashqariladim, Tarlondan xabar oldim. Tarlon old oyoqlari bilan yer tirnadi. Qoziqni aylanib-aylanib chopdi. **Pishqirib-pishqirib** chopdi (Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom"). Suvning oqishiga nisbatan qo'llangan pishqirmoq leksemasi "tez oqmoq" ma'nosini ifodalaydi: Bu orada o'zbek va qirg'iz tuprog'ini qoq ikkiga bo'lib, ayni chog'da ularni birlashtirib oqayatgan kanal suvi tobora **pishqirib**, guvlanib, hirslanib to'lg'onardi. Suvning ko'pligidan va oqimning zo'rligidan kanal oyning nurida xuddi oq asov **otdek o'yoqlar**, zulmatda sermalayotgan olmos qilichdek ajabtovur yaltirar, ko'zi tushgan kishini sohir va rahmli xayollarga yetaklardi... Lekin qiz va yigitning bu bilan ishi yo'q, ularning tomirlarida yanada azim, yanada sarkash bir kuch – Ishq daryosi **pishqirib** oqayotgandi. (Ulug'bek Hamdam, "Sabo va Samandar", 27). Olovga, suvga, poyezdga nisbatan qo'llanayotgan pishqirmoq leksemasining differensial semalarini yuqorida ko'rib o'tdik. Ularning ichida barchasi uchun aloqador bo'lgan "ovoz" semasi integral sema vazifasini bajaradi.

Ot hayvonining burnidan pishqirib ovoz chiqarishi o'zbek folklor asarlarida o'ziga xos ifodalanishi ham diqqatni tortadi. Masalan, **arillamoq** leksemasi: Og'zini karrakday ochgan, arillagan arg'umoq otlarning har qaysisi tomday keladi. "Avazxon". Bunday misollarda qo'llangan folklorga oid so'zlar matnning estetik kuchini oshirish uchun xizmat qiladi:

Ot boradi **arillab**,

Otdan o'qday sharillab.

Ot alqimi tong shamoli,

Mis karnayday zarillab.

Suvsiz cho'lda G'irko'k borayotir parillab. (Ravshan). Shuningdek, pirqillamoq (O'TIL) leksemasi hayvonning burnidan pishqirgan ovoz chiqarishini ifodalaydi:

Otlar boradi **pirqillab**,

Yerning beti irkillab.

Chopganda olar changi,

Havoda chiqdi g'urpillab. ("Alpomish" Oyina. uz); Yo'lga tushdi qিqr botir, Bedov otlar **pirqillab** ("Xush keldi") Pirqillamoq leksemasi pirq-pirq tovushidan -illa affiksi vositasida yasalgan bo'lib, o'zbek tilida hozirgi kunda ham iste'molda mavjud, u qaynayotgan suvning tovushiga nisbatan qo'llanadi: Momom choynakka choy damlagach, cho'qqa qo'yar, jo'mragidan **pirqillab** suv tosha boshlasa, qozonsochiq bilan tagini artib dasturxonga keltirar edi (Shukur Xolmirzayev, "Ota yurt").

Ot hayvoning burnidan baland ovoz chiqarishi pishqirmoq, pirqillamoq so'zlar bilan ifodalansa, burnidan past tovush chiqarishi esa **o'kranmoq** (O'TIL, I, 153) leksemasi bilan ifodalanadi. Folklor asarlari tilining izohli lug'atida **o'qranmoq** shaklida qayd etilib, ot hayvoniga nisbatan bir-biri bilan tanishmoq ma'nosini bildiradi deya izohlanadi: O'qranib topishib endi qoladi, Hayvonning tarziga Hakim qaradi ("Alpomish", 317). Shuningdek, bu so'z xalq dostonlarida **o'kranmoq** shakli bilan ham qo'llangan bo'lib, ovozning kuchli-kuchsizligi jihatidan **pishqirmoq** so'zi bilan zidlanish hosil qiladi. Chunki o'kranmoq hayvoning kuchsiz, bosiq ovoz chiqarishini anglatadi: Qashlagani otga yoqib qolibdi, **o'kranib** u gir aylanib turibdi ("Alpomish"). **O'kra** qayta-qayta baland ovoz chiqarmoq. Bu fe'l qadimgi turkiy tildagi "baland ovoz chiqar" ma'nosini ifodalovchi **o'kur** fe'lidan hosil qilingan¹. Eski o'zbek tilida **o'kranmoq** asosan insonning baland ovozda yig'lash holatini ifodalaydi: Biz endi shunday qolaberamizmi, agar zolimlar... – dedi-da Kumush so'zining oxirini aytomay **o'krab** yubordi² (A.Qodiriy "O'tkan kunlar"). Hozirgi o'zbek tilida bu so'z faqatgina shevalarda iste'molda mavjud bo'lib, faqat insonga nisbatan qo'llanib "yig'lamoq" semasini anglatadi: Zebi xola uni ko'rib, o'zini tutolmay, **o'krab** yubordi (O'lmas Umarbekov "Qiyomat qarz"). Yuqoridagi misollardan xulosa qilishimiz mumkinki, **o'kranmoq** so'zi o'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilmagan **leksik lakuna** hisoblanadi.

¹ Shavkat Rahmatullayev O'zbek tilining etimologik lugati 3 jild <https://n.ziyouz.com>

² "O'tkan kunlar" (<https://e-library.namdu.uz>)

Xalq dostonlarida pirqiramoq so‘zi ot hayvoning harakatiga nisbatan qo‘llangan, biroq folklor asarlari tilinig izohli lug‘atiga **pirqiramoq** so‘zi kiritilmagan. Biroq, u xalq dostonlarida uchraydi:

G‘irko‘k ot g‘irqiraydi,

O‘qtalib **pirqiraydi**,

Olisni ko‘zlab bedov,

Chopmoqqa zirqiraydi. “G‘irko‘kning tug‘ilishi”. Ot hayvoni chopib borayotganda burnidan chiqadigan pir-pirq tovushini ifodalovchi taqlid so‘zga - ira fe’l yasovchi affiksi qo‘shilishidan yasalgan bo‘lib, pirqillamoq, arqiramoq, okranmoq, oxranmoq kabi ot hayvonining ovoz harakatlarini ifodalovchi leksik-semantik guruhni tashkil qiladi. Bu so‘z o‘zbek tili leksik fonida keyinchalik suyuqlikning, masalan, suvning oqish holatiga nisbatan iste’molda saqlanib qolgan. Fikrimizga oid misol Cho‘lpon ijodida uchraydi: ... toshg‘a qo‘yg‘onda tosh ostidan suv **pirqirab** chiga boshlag‘on emish (“Cho‘lponning tarjimachilik merosidan” kh-davron.uz)

Xulosa o‘rnida **oqradi**, **oqrar**, **oqramaq**, **arqiramoq**, **tigrätte**, **tigrätür**, **tigrätmäk**, **o‘kranmak**, **o‘qranmoq** leksemalari o‘zbek tili leksik fonida ot hayvonining ovoz harakatlarini ifodalovchi leksik-semantik guruhnинг tarixiy qatlamni tashkil qilsa, **pirqillamoq**, **pirqiramoq**, **arillamoq** leksemalarining “ovozi” semasi saqlangan holda, suv pirqilladi, bola arilladi kabi lug‘aviy valentlik imkoniyatlarini kengaytirgan. **Kishnamoq** so‘zi qadimda xachirning ovoziga nisbatan qo‘llangan. Keyinchalik esa bunday xususiyat tamoman yo‘qolganligini yuqorida ko‘rib o‘tdik.

ADABIYOTLAR

1. Алпанова Ш. Ўзбек тилида руҳий ҳолатнинг акс этиши. - Тошкент: Академнашр, 2019.
2. Devoni lug‘otut turk (indeks-lug‘at) - Ziyouz.com
3. Эгамова Ш. Алишер Навоий асарлари тилидаги қадимги туркий лексика тадқиқи.- Тошкент: Фан, 2008.
4. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 128 б.
6. Содиқова М. Феъл стилистикаси. [www.ziyouz.com kutubxonasi](http://www.ziyouz.com/kutubxonasi)
7. Sobirov A. o‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. T: Ma’naviyat, 2004
8. Ҳамидов З ., Холбоева М. Алишер Навоийнинг синонимлардан фойдаланиш маҳорати. Т.: Мериус. 2010.
9. Ўзбек тилининг изохли луғати. 4 томлик .– Тошкент: ЎзМЭ, 2008